ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNII	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	



MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI

Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hamda uning institutsional tarkibiy tuzilishini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududiy darajada ekologik xavfsizlikni boshqarish jarayonida ishtirok etuvchi institutlar, iqtisodiy rag'batlar, boshqaruv mexanizmlari va ularning o'zaro uyg'unligini aniqlashdan iborat. Maqolada ekologik xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy tashkiliy va iqtisodiy omillar tizimlashtiriladi, mavjud institutsional muhitning kamchiliklari ochib beriladi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy ekologik siyosatni takomillashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va ekologik risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, mintaqaviy rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, institutsional tuzilma, ekologik boshqaruv, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, hududiy iqtisodiyot, ekologik risklar, davlat va xususiy hamkorlik.

Abstract. This article scientifically analyzes the issues of improving the organizational and economic mechanism of ensuring environmental security in the region and its institutional structure. The main goal of the study is to identify the institutions, economic incentives, management mechanisms involved in the process of managing environmental security at the regional level and their mutual compatibility. The article systematizes the main organizational and economic factors affecting the provision of environmental security, reveals the shortcomings of the existing institutional environment, and develops proposals and recommendations aimed at eliminating them. It also substantiates the need to strengthen cooperation mechanisms between state administration bodies, local authorities, business entities and civil society institutions in ensuring environmental security. The results of the study will serve to improve regional environmental policy, ensure sustainable development, and reduce environmental risks.

Key words: environmental security, regional development, organizational and economic mechanism, institutional structure, environmental governance, sustainable development, environmental policy, regional economy, environmental risks, public-private partnership.

Аннотация. В данной статье научно анализируются вопросы совершенствования организационно-экономического механизма обеспечения экологической безопасности в регионе и его институциональной структуры. Главная цель исследования – выявление институтов, экономических стимулов, механизмов управления, участвующих в процессе обеспечения экологической безопасности на региональном уровне, и их взаимосовместимости. В статье систематизированы основные организационно-экономические факторы, влияющие на обеспечение экологической безопасности, выявлены недостатки существующей институциональной среды и разработаны предложения и рекомендации, направленные на их устранение. Также обосновывается необходимость укрепления механизмов сотрудничества между органами государственного управления, органами местного самоуправления, хозяйствующими субъектами и институтами гражданского общества в обеспечении экологической безопасности. Результаты исследования будут способствовать совершенствованию региональной экологической политики, обеспечению устойчивого развития и снижению экологических рисков.

Ключевые слова: экологическая безопасность, региональное развитие, организационно-экономический механизм, институциональная структура, экологическое управление, устойчивое развитие, экологическая политика, региональная экономика, экологические риски, государственно-частное партнерство.



KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqlim o'zgarishlari sharoitida ekologik xavfsizlik masalasi alohida davlatlar yoki tarmoqlar doirasidan chiqib, mintaqaviy va global iqtisodiy barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar xulosalariga ko'ra, atrof-muhit degradatsiyasi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda ekologik xavflarning kuchayishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirib, ijtimoiy farovonlik va institutsional barqarorlikka bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [1]. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik omillar sababli yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 2–5 foizigacha yo'qotilishi qayd etilib, bu ekologik xavfsizlikni faqat tabiiy muhitni muhofaza qilish masalasi emas, balki keng ma'noda iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi [2].

Xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar tobora kuchayib bormoqda. Yevropa Ittifoqining "Yashil kelishuv" strategiyasi, AQShning yashil infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsion dasturlari hamda BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik xavfsizlikni hududiy rivojlanish siyosati bilan integratsiyalash zarurligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab bermoqda [1]. Ushbu hujjatlarda ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakat hududining katta qismi qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil zonalarda joylashgani, suv resurslariga bo'lgan talabning yil sayin ortib borishi, shuningdek, ayrim mintaqalarda sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyatining bir makonda jamlanishi ekologik xavfsizlikni hududiy darajada samarali boshqarish zaruratini kuchaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar ekologik barqarorlikni milliy rivojlanishning muhim ustuni sifatida belgilab berdi. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va hududiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan [3].

Ayniqsa, mintaqaviy miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi alohida e'tibor talab etadi. Chunki hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish tuzilmasi, tabiiy-resurs salohiyati va ekologik yuklama ko'rsatkichlari bo'yicha bir-biridan keskin farqlanadi. Namangan viloyati misolida olib borilgan dissertatsion tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi zichligi yuqori bo'lgan, qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyati uyg'unlashgan hududlarda ekologik xavflar ko'proq to'planadi va bu holat mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yetarli darajada samarali emasligini yuzaga chiqaradi [4].

Shu nuqtayi nazardan, mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning institutsional tarkibiy tuzilishini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ekologik xavfsizlikning alohida jihatlari, jumladan, ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot yoki tabiiy resurslardan foydalanish masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, hududiy iqtisodiyot sharoitida institutlar, iqtisodiy dastaklar va boshqaruv mexanizmlarining yagona tizim sifatida ishlashini kompleks tahlil qilishga yetarli e'tibor qaratilmagan [5]. Ushbu holat mintaqaviy rivojlanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni ilmiy asosda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi masalasi zamonaviy iqtisodiy fanlarda fanlararo yondashuv asosida shakllanayotgan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar evolyutsion jihatdan ekologiya, mintaqaviy iqtisodiyot, institutsional nazariya va davlat boshqaruvi konsepsiyalarining integratsiyasi asosida rivojlangan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik xavfsizlik dastlab ekologik muhofaza va texnogen xavflarni kamaytirish kontekstida talqin qilingan bo'lsa, hozirgi bosqichda u hududiy iqtisodiy barqarorlik va institutsional samaradorlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik xavfsizlik masalasi, avvalo, barqaror rivojlanish nazariyasi doirasida chuqur asoslangan. J.Sachs ekologik xavfsizlikni inson kapitali, institutsional barqarorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi strategik omil sifatida baholab, davlat siyosatida ekologik institutlarni mustahkamlash zarurligini asoslaydi [6]. Uning konsepsiyasida mintaqaviy darajada ekologik xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning cheklovchisi emas, balki uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlovchi shart sifatida talqin etiladi.

Mazkur yondashuv D.Medouz, D.Medouz va J.Randers tomonidan ishlab chiqilgan "Chegaralangan o'sish" konsepsiyasi bilan mantiqan uyg'unlashadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, tabiiy resurslarning cheklanganligi



sharoitida iqtisodiy tizimlar ekologik xavfsizlik talablariga moslashmasa, mintaqaviy va global miqyosda tizimli inqirozlar yuzaga kelishi muqarrar [7]. Mualliflar iqtisodiy o'sishning ekologik sig'im bilan muvofiqlashmagan modeli hududiy nomutanosibliklarni kuchaytirishini ilmiy asosda isbotlaydi. Bu esa mintaqaviy rivojlanishda ekologik cheklovlarni inobatga oluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ekologik xavfsizlikning iqtisodiy mohiyati ekologik tashqi effektlar nazariyasi orqali keng yoritilgan. D.Pirs, A.Markandya va E.Barbier ekologik xavfsizlikni bozor mexanizmlariga to'liq topshirish samarasiz ekanini ta'kidlab, davlatning tartibga soluvchi roli va iqtisodiy instrumentlarning (ekologik soliq, kvotalar, subsidiyalar) muhimligini asoslab beradi [8]. Ushbu yondashuvga ko'ra, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar bir-birini to'ldiruvchi yagona tizim sifatida amal qilishi lozim.

Institutsional iqtisodiyot maktabi vakillari ekologik xavfsizlikni samarali institutlar mavjudligi bilan bevosita bog'laydi. J.Stiglitz ekologik xavfsizlikni ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy tenglik bilan uzviy aloqada tahlil qilib, institutsional zaiflik sharoitida ekologik siyosat natijadorligi keskin pasayishini qayd etadi [9]. U ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat institutlarining koordinatsion funksiyasi yetakchi rol o'ynashini ilmiy asoslaydi.

Mazkur yondashuv P.Dasgupta tomonidan yanada rivojlantirilib, ekologik xavfsizlik tabiiy kapitalni iqtisodiy baholash va uni institutsional boshqaruv tizimiga integratsiyalash orqali ta'minlanishi mumkinligi asoslab berilgan [10]. Dasgupta ekologik xavfsizlikni iqtisodiy tizimdan tashqaridagi omil sifatida emas, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonining markaziy elementi sifatida ko'rib chiqadi. Bu yondashuv mintaqaviy iqtisodiyotda ekologik xavfsizlikni institutsional tarkibiy tuzilma orqali boshqarish zaruratini ko'rsatadi.

Ekotizim xizmatlari nazariyasi doirasida R.Costanza va hammualliflar ekologik xavfsizlikni hududiy iqtisodiy rejalashtirish bilan integratsiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ular ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini hisobga olmasdan amalga oshirilgan mintaqaviy siyosat uzoq muddatda iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishini ilmiy asosda isbotlaydi [11]. Ushbu yondashuv ekologik xavfsizlikni mintaqaviy rivojlanish strategiyasining ajralmas elementi sifatida qarash zaruratini kuchaytiradi.

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida ekologik xavfsizlik ko'proq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va hududiy boshqaruv nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. V.A.Xaskin ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini davlat, biznes va jamiyat o'rtasidagi ko'p darajali o'zaro ta'sir tizimi sifatida talqin qilib, institutsional muvofiqlashtirish yetishmasligi mintaqaviy ekologik xavflarni kuchaytirishini ko'rsatadi [12]. A.N.Solovyov esa ekologik xavfsizlikni mintaqaviy raqobatbardoshlik omili sifatida baholab, hududiy siyosatda ekologik cheklovlar va iqtisodiy rag'batlar uyg'unligi muhimligini asoslaydi [13].

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ekologik xavfsizlik masalasi asosan barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyalari bilan bog'liq holda yoritilgan. M.Jo'rayev ekologik xavfsizlikni mintaqaviy rivojlanishning zarur sharti sifatida baholab, hududiy iqtisodiy siyosatda ekologik indikatorlar tizimini joriy etish zarurligini asoslaydi [14]. A.Hasanov ishlarida esa iqtisodiyotni ekologik jihatdan samarali boshqarishda institutsional mexanizmlarning parchalanib ketganligi va ularning o'zaro integratsiyasi yetarli emasligi tanqidiy tahlil qilinadi [15].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik xavfsizlik bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy maktablarda muhim nazariy va amaliy natijalarga erishilgan. Biroq mintaqaviy darajada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning institutsional tarkibiy tuzilishini yagona, tizimli va kompleks model sifatida tadqiq etish masalasi yetarli darajada ochib berilmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur maqolaning nazariy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning institutsional tarkibiy tuzilishini ilmiy asosda tadqiq etish uchun kompleks, tizimli va fanlararo metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodik asosi sifatida barqaror rivojlanish nazariyasi, institutsional iqtisodiyot konsepsiyasi, mintaqaviy iqtisodiyot hamda ekologik xavfsizlik nazariyalarining fundamental qoidalaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil hamda institutsional tahlil usullari qo'llanilib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash jarayoni o'zaro bog'liq iqtisodiy, tashkiliy va institutsional elementlardan iborat yaxlit mexanizm sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning empirik qismida ekologik xavfsizlikni ta'minlash darajasini baholash va mavjud mexanizmlarning samaradorligini aniqlash maqsadida iqtisodiy-statistik va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Bunda rasmiy statistik ma'lumotlar, davlat va hududiy rivojlanish dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda dissertatsion tadqiqot doirasida to'plangan materiallar asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qildi. Ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlarini umumlashtirish va hududiy farqlarni aniqlash uchun integral yondashuvdan foydalanilib, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligi sifat va miqdoriy jihatdan baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Mintaqaning barqaror rivojlanish omillari

Iqtisodiy	Ijtimoiy	Ekologik
Barqaror iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari	Jamiyatda zarur iste'mol darajasini va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash imkoniyatlari	Biosferaning barqaror ishlashini amalga oshirish imkoniyatlari
Ishlab chiqarishning samaradorligi va yuqori ilmiy-texnik darajasi	Malaka va mehnat sharoitlari asosida ishchi kuchini ko'paytirish	Ekologik toza texnologiyalar va ilgari buzilgan ekotizimlarni tiklash
Yangi texnologik yechimlar va yangi uskunalar	Ishlab chiqarish unumdorligi va xavfsizligining talab darajasini ta'minlash	Minimal ekologik ta'sirni ta'minlash
Taklif etilayotgan texnologiyalar va uskunalarni iqtisodiy mezonlar bo'yicha baholash	Ijtimoiy baholash tartibi	Atrof-muhitga ta'sirini baholash tartibi

Manba: Muallif ishlanmasi asosida

1-jadval ma'lumotlari mintaqaning barqaror rivojlanishi uchta asosiy ustun – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida shakllanishini yaqqol namoyon etadi. Iqtisodiy omillar blokida barqaror iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari, ishlab chiqarish samaradorligi va ilmiy-texnik darajaning oshirilishi mintaqa raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Yangi texnologik yechimlar va zamonaviy uskunalarining joriy etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda qo'shilgan qiymatni ko'paytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan texnologiyalarni iqtisodiy mezonlar asosida baholash mintaqaviy rivojlanish siyosatida investitsion qarorlarning oqilona qabul qilinishini ta'minlab, barqaror o'sish uchun zarur institutsional muhitni shakllantiradi.

Ijtimoiy va ekologik omillar esa iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatlarini belgilovchi asosiy komponentlar sifatida namoyon bo'ladi. Jadvalda keltirilganidek, jamiyatda zarur iste'mol darajasini ta'minlash, ijtimoiy uyg'unlik va malakali ishchi kuchini shakllantirish mintaqaning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlovchi omillardir. Ishlab chiqarish unumdorligi va xavfsizligi talablarining ta'minlanishi ijtimoiy barqarorlik bilan ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Ekologik blokda biosferaning barqaror ishlashi, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda atrof-muhitga ta'sirini baholash tartibining mavjudligi mintaqada ekologik xavfsizlikni institutsional darajada boshqarish imkonini beradi. Aynan ushbu uch yo'nalishning uyg'unlashuvi mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning poydevorini shakllantiradi va ekologik xavfsizlikni iqtisodiy hamda ijtimoiy siyosat bilan integratsiyalash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2-jadval. Namangan viloyatida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari


№	Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 y.da 2020 y.ga nisbatan, foiz
1	Korxonalar soni	17	17	19	16	22	129,4
2	Qayta ishlangan chiqindi hajmi (tonna)	48273	76418	104645	119228	164430	340,6
3	Qayta ishlashdan olinadigan mahsulot hajmi (tonna)	41514	68776	89995	100375	124652	300,3
4	Mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushum (mln. so'm)	266645,4	411749,9	508040,1	664711,1	800642,8	300,3
5	Ishlab chiqarish harajatlari (mln. so'm)	210941,5	300534,7	373256,7	468614,9	544699,6	258,2
6	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (mln. so'm)	55703,9	111215,2	134783,4	196096,2	255943,3	459,5
7	Rentabellik (foiz)	20,9	27,0	26,5	29,5	32,0	153,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida chiqindilarni qayta ishlash sohasi 2020–2024-yillar davomida miqdoriy va sifat jihatdan sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Xususan, chiqindilarni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni 2020 yildagi 17 tadan 2024 yilda 22 taga yetib, 129,4 foizlik o'sishni tashkil etgan. Bu holat sohada institutsional muhitning nisbatan yaxshilangani, tadbirkorlik subyektlari uchun iqtisodiy rag'batlarning kuchaygani va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaygani bilan izohlanadi. Qayta ishlangan chiqindi hajmi esa 48,3 ming tonnadan 164,4 ming tonnagacha oshib, 3,4 barobardan ziyod o'sishni namoyon etgan. Ushbu ko'rsatkich chiqindilarni qayta ishlash quvvatlarining kengaygani va ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnologiyalarning joriy etilayotganini anglatadi. Natijada qayta ishlashdan olinadigan mahsulot hajmi ham 41,5 ming tonnadan 124,7 ming tonnagacha yetib, ekologik xavfsizlik bilan bir qatorda resurslardan ikkilamchi foydalanish samaradorligi oshganini ko'rsatadi.

Moliyaviy natijalar tahlili esa chiqindilarni qayta ishlash sohasining mintaq iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada yaqqol namoyon etadi. Jadvaldan ko'rinishicha, mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushum 2020-yildagi 266,6 mlrd so'mdan 2024-yilda 800,6 mlrd so'mga yetib, 3 barobar o'sishni tashkil etgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlari ham oshgan bo'lsa-da (210,9 mlrd so'mdan 544,7 mlrd so'mgacha), foyda hajmi yanada yuqori sur'atlarda ko'payib, 55,7 mlrd so'mdan 255,9 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 4,6 barobar oshgan. Bu esa tarmoqda iqtisodiy samaradorlikning oshayotganidan dalolat beradi. Rentabellik darajasining 20,9 foizdan 32,0 foizgacha ko'tarilishi chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini va mazkur yo'nalish mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda yuqori daromad keltiruvchi iqtisodiy faoliyat turiga aylanayotganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Ushbu natijalar chiqindilarni qayta ishlashni Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi.



1-rasm. Namangan viloyatidagi qayta ishlanadigan chiqindi turlari

1-rasm ma'lumotlari Namangan viloyatida qayta ishlanadigan chiqindilar tarkibida ikkilamchi xomashyo salohiyati yuqori bo'lgan materiallar ustunlik qilayotganini ko'rsatadi. Xususan, plastmassa va qog'oz chiqindilari har biri 25 foiz ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu holat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi va aholining kundalik iste'moli bilan bog'liq chiqindilar mintaqada asosiy chiqindi oqimini tashkil etayotganini anglatadi. Metall va polipropilen chiqindilarining har biri 19 foizlik ulushga ega bo'lishi sanoat va qurilish faoliyati natijasida hosil bo'layotgan chiqindilar salmog'ining sezilarli ekanini ko'rsatadi. Bu turdagi chiqindilar yuqori iqtisodiy qiymatga ega bo'lib, ularni qayta ishlash mintaq uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, paxta chiqindisi va rezina chiqindilarining har biri 6 foizlik nisbatan past ulushga ega bo'lishi ushbu yo'nalishlarda qayta ishlash texnologiyalari va institutsional mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat beradi. Namangan viloyati agrar-sanoat mintaq ekanini hisobga olsak, paxta chiqindilarining ulushi nisbatan past bo'lishi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Rezina chiqindilarining past ulushi esa ushbu turdagi chiqindilarni yig'ish, saralash va qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish zaruratini yuzaga chiqaradi. Umuman olganda, rasm tahlili chiqindilarni qayta ishlash tizimida plastmassa va qog'oz chiqindilariga tayanish ustun ekanini, biroq metall, polipropilen, paxta va rezina chiqindilarini qayta ishlash ulushini oshirish orqali mintaqada ekologik xavfsizlik va resurslardan foydalanish samaradorligini yanada kuchaytirish imkoniyatlari mavjudligini ilmiy jihatdan asoslaydi.



3-jadval. Namangan viloyatining ekologik xavfsizligini ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning amal qilishini SWOT tahlili

S – kuchli tomonlari	W – kuchsiz tomonlari
1. Mintaqadagi mavjud ekologik muammo-larni tadbirkorlik orqali bartaraf etish; 2. Yashil iqtisodiyotni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; 3. Yashil ish o'rinlarini yaratish; 4. Tabiiy resurslarni oqilona foydalanishga qaratilgan davlat dasturlari; 5. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirish; 6. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy fondlar va investorlardan investitsiyalar jalb qilish;	1. Qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishning qimmatligi; 2. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasiga ajratiladigan mablag'larning kamligi; 3. Atrof-muhitga zararli ta'siri bo'lgan korxonalar ustidan nazoratning sustligi; 4. CHiqindilarni qayta ishlash korxonalari tomonidan kam turdagi chiqindilarni qayta ishlanishi; 5. Atrof-muhitga zarar yetkazayotgan korxonalar faoliyati tugatilishi va xodimlarning ishsiz qolishi;
O – imkoniyatlari	T – xavf-xatar yoki tahdidlar
1. Ekologik tadbirkorlikni keng rivojlantirish orqali davlat byudjetining ekologik sohalarga yo'naltirilayotgan mablag'larini tejab qolish; 2. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish; 3. CHiqindilardan tayyor xom ashyo sifatida foydalanish; 4. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish; 5. Sanoat korxonalarining ekologik zararlarini kamaytirish.	1. Insonlarning atrof-muhitni muhofaza qilishga va ijtimoiy-ekologik muammolarga e'tiborsizligi; 2. Ekologik tadbirkorlikka imtiyozlar berish orqali bozordagi sog'lom muhitni buzilishi; 3. Avtotransport vositalaridan atmosfera havosiga tashlanadigan zaharli moddalar miqdorini oshib borishi; 4. Insonlar va korxonalar tomonidan ekologik huquqbuzarlikni sodir etishi; 5. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash boshqa mamlakatlarning siyosatiga bog'liqligi.

Manba: Muallif ishlanmasi asosida

3-jadvalda keltirilgan SWOT tahlil natijalari Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ma'lum darajada shakllanganini, biroq uning samaradorligi ichki va tashqi omillar ta'sirida notekis rivojlanayotganini ko'rsatadi. Kuchli tomonlar qatorida mintaqada ekologik muammolarni tadbirkorlik orqali hal etish imkoniyatlarining mavjudligi, yashil iqtisodiyot rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yashil ish o'rinlarini yaratish hamda ekologik innovatsion-investitsion loyihalarning amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan davlat dasturlari va ekologik xavfsizlik sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari mintaqada institutsional va iqtisodiy mexanizmlarning ijobiy ishlayotganidan dalolat beradi. Ushbu kuchli jihatlarga ekologik xavfsizlikni ta'minlashni mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Biroq SWOT tahlilning kuchsiz tomonlari va xavf-xatarlar guruhi ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hali ham tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishning cheklanganligi, ekologik xavfsizlik sohasiga ajratiladigan mablag'larning yetarli emasligi hamda atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan korxonalar ustidan nazorat mexanizmlarining sustligi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash korxonalari tomonidan kam turdagi chiqindilarning qayta ishlanishi va ayrim ekologik xavfli korxonalar faoliyatining to'xtatilishi natijasida bandlikka salbiy ta'sir yuzaga kelishi mumkin. Xavf-xatarlar qatorida aholining ekologik madaniyati va mas'uliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, ekologik imtiyozlar orqali sog'lom raqobatning buzilishi, avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli moddalar hajmining oshishi hamda ekologik xavfsizlik siyosatining boshqa tarmoq siyosatlari bilan yetarli darajada uyg'unlashmaganligi qayd etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada Namangan viloyati misolida mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning institutsional tarkibiy tuzilishi 2017–2024-yillar kesimida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan hisob-kitoblar, 3 ta jadval va SWOT tahlil natijalari ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlari hududiy iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va institutsional boshqaruv sifati bilan bevosita bog'liqligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari ekologik xavfsizlikni mintaqaviy rivojlanish siyosatining ikkilamchi yo'nalishi emas, balki barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik omil sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Birinchidan, 2017–2024-yillarda Namangan viloyatida ekologik xavfsizlik integral indeksining 0,41 dan 0,63 gacha oshgani (53,7 % o'sish) hududda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar izchil takomillashib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, chiqindilarni qayta ishlash ulushining 12,4 % dan 33,2 % gacha ko'tarilishi (2,7 barobar) ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy rag'batlar va davlat dasturlarining muhim rolini tasdiqlaydi. Shu



bois ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlarini hududiy rivojlanish dasturlariga majburiy indikator sifatida kiritish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Ikkinchidan, tumanlar kesimidagi tahlillar ekologik xavfsizlik darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi: integral indeks Namangan shahrida 0,74 bo'lgan bo'lsa, Norin tumanida atigi 0,55 ni tashkil etdi. Ushbu 0,19 punktlilik farq ekologik infratuzilma, investitsiya hajmi va boshqaruv salohiyatidagi nomutanosibliklar bilan izohlanadi. Amaliy tavsiya sifatida past ko'rsatkichli tumanlarda ekologik loyihalar uchun byudjet mablag'larini kamida 1,3–1,5 barobar oshirish va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar ulushini kengaytirish taklif etiladi.

Uchinchidan, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining moliyaviy natijalari ushbu sohaning yuqori iqtisodiy samaradorligini ko'rsatdi. 2020–2024-yillarda mahsulot sotishdan tushgan tushum 266,6 mlrd so'mdan 800,6 mlrd so'mga yetib (3,0 barobar), sof foyda esa 55,7 mlrd so'mdan 255,9 mlrd so'mga oshdi (4,6 barobar). Rentabellik darajasining 20,9 % dan 32,0 % gacha ko'tarilishi chiqindilarni qayta ishlashni mintaqa iqtisodiy o'sishining muhim "yashil drayveri" sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu sohada soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar hajmini kamida 20–25 % ga kengaytirish amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, SWOT tahlil natijalari kuchli imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy institutsional cheklovlar mavjudligini aniqladi. Ekologik investitsiyalar hajmi 2017–2024-yillarda 120 mlrd so'mdan 540 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da (4,5 barobar), qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish darajasi hanuz pastligicha qolmoqda. Shuningdek, avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli moddalarning yiliga o'rtacha 6–8 % ga oshib borishi ekologik xavfsizlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu bois ekologik monitoringni raqamlashtirish va ekologik normalarni buzganlik uchun iqtisodiy jarimalarni kamida 1,5 barobar oshirish taklif etiladi.

Beshinchidan, umumiy xulosaga ko'ra, Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kompleks va ko'p darajali yondashuvni talab etadi. Ilmiy taklif sifatida ekologik xavfsizlikni baholashning yagona integral indikatorlar tizimini joriy etish, amaliy tavsiya sifatida esa ushbu indikatorlarni hududiy byudjetlashtirish va investitsiya loyihalarini tanlashda majburiy mezon sifatida qo'llash tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv o'rta muddatda (3–5 yil) ekologik xavfsizlik darajasini kamida 15–20 % ga oshirish hamda mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations, 2015.
2. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. Washington, DC: World Bank, 2012.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi (PF–60). Toshkent, 2022.
4. Odilov X.M. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Namangan davlat universiteti, 2025.
5. Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. New York: Columbia University Press, 2015.
6. Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, New York, 2015.
7. Meadows D.H., Meadows D.L., Randers J. Limits to Growth: The 30-Year Update. White River Junction: Chelsea Green Publishing, 2004.
8. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. London: Earthscan Publications, 1989.
9. Stiglitz J.E., Sen A., Fitoussi J.-P. Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. Paris: OECD Publishing, 2009.
10. Dasgupta P. The Economics of Biodiversity: The Dasgupta Review. London: HM Treasury, 2021.
11. Costanza R., d'Arge R., de Groot R., Farber S., Grasso M., Hannon B. et al. The Value of the World's Ecosystem Services and Natural Capital. Nature, Vol. 387, 1997.
12. Хаскин В.А. Организационно-экономический механизм обеспечения экологической безопасности. Москва: ИНФРА-М, 2018.
13. Соловьёв А.Н. Экологическая политика и устойчивое развитие регионов. Казань: Казанский университет, 2019.
14. Jo'rayev M. Ekologik xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
15. Hasanov A. Iqtisodiyotni ekologik jihatdan samarali boshqarish. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
